

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASA O'QITUVCHILARINING MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Nizomova Nodira Paxrutdinovna,  
PROFI UNIVERSITY Pedagogika va psixologiya kafedra mudiri

*Annotatsiya. Samarali muloqot har qanday ta'lim muassasasida muvaffaqiyatli o'qitish va o'rganishning asosidir. Umumiy o'rta ta'lim sharoitida muloqot madaniyatini shakllantirishda o'qituvchilarning o'rni katta. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida mustahkam muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik xususiyatlar o'rganiladi.*

*Kalit so'zlar: samarali muloqot, ta'lim muassasasi, o'qitish, muloqot madaniyati, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim faoliyati madaniyati.*

Yoshlarni nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, muloqot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir.

Shaxs rivojlanishida muloqotning roli to'g'risida psixologlar A.A.Lyublinskaya, D.B.Elkoninlar bolada o'yin faoliyati orqali muloqotning shakllanishini ta'kidlaydilar.

Muloqot orqali shaxsning harakteri, irodaviy sifatlari shakllanishi haqida P.Y.Galperin, N.F.Dobro'nin, N.F.Talizinalar o'zlarining tadqiqotlarini o'tkazganlar. Shuningdek, Respublikamiz psixologlaridan M.G.Davletshin, E.G'oziyev, N.P.Anikeyeva, N.Safoyev kabilar muloqot muammosini turli tomondan yoritib berganlar.

Jumladan, professor E.G'oziyev "Muomala psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida muloqotning barcha qirralarini nazariy tomondan ochib berishga harakat qilgan.

Professor M.G.Davletshin ham "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida muloqotni kishilarda qanday shakllanishi haqida fikrlar bildirgan.

Ta'lim - bu avvalo axborot jarayonidir.

Muloqotga xilma xil ta'riflar berilgan bo'lib, psixolog V.M.Karimovanning Ijtimoiy psixologiya darsligida unga quyidagicha ta'rif bergan: Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir.

Rus psixologlaridan A.N.Leontyev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: "Agar barcha katta avlod o'lib ketganda, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi". Darhaqiqat, avlodlararo muloqot tufayli har bir alohida jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlar mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avlodlararo uzatadilar.

O'quvchilarni muloqotga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishga tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir.

O'quvchilar tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Shuning uchun bolalarga yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur. O'smirlar muloqotiga nisbatan o'spirinlar muloqoti ancha tarbiyalangan bo'ladi. Chunki ular muloqot madaniyati, muomala sirlarini egallagan bo'ladilar. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri-bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj.

Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim.

Samarali muloqotni modellashtirish. O'qituvchilar talabalar uchun namuna sifatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Samarali muloqot qobiliyatlarini namoyish etish orqali o'qituvchilar ijobiy ta'lim muhitini yaratadilar va o'z o'quvchilariga o'rnak bo'lishadi. Modellashtirish orqali o'qituvchilar faol tinglash, aniq ifodalash va hurmatli o'zaro munosabatni namoyish etishlari mumkin, bu esa maktab jamoasida samarali muloqot madaniyatini rivojlantirishi mumkin.

Kasbiy rivojlanish dasturlari. Muloqot ko'nikmalariga yo'naltirilgan kasbiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish o'qituvchilarning imkoniyatlarini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Seminarlar va treninglar muloqotning turli jihatlarini, jumladan, og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotni, nizolarni hal qilish va madaniy sezgirlikni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu dasturlar o'qituvchilarga maktab sharoitida turli xil aloqa stsenariylarini boshqarish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan yordam beradi.

Hamkorlikdagi ta'lim muhitini targ'ib qilish. O'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish ochiq muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Jamoada o'qitish, hamkorlikda dars rejalashtirish va muntazam uchrashuvlar o'qituvchilarga g'oyalar, tajribalar va muammolarni baham ko'rish imkoniyatini beradi. Hamkorlikdagi ta'lim muhiti nafaqat o'qituvchi va o'qituvchi muloqotini kuchaytiradi, balki umumiy maktab madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Teskari aloqa tsiklini yaratish. Teskari aloqa tizimini yaratish doimiy takomillashtirish uchun juda muhimdir. O'qituvchilar o'zlarining muloqot amaliyotlari bo'yicha konstruktiv fikr bildirishlari va qabul qilishlari uchun rag'batlantirilishi kerak. Rasmiy yoki norasmiy fikr-mulohazalarning ushbu aylanishi o'qituvchilarga o'zlarining muloqot uslublari haqida fikr yuritish va kerakli tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, fikr-mulohazalarni qadrlaydigan madaniyat o'qituvchilarda kasbiy o'sishni va mas'uliyat hissini oshiradi.

Texnologiyalar integratsiyasi. Texnologiyani aloqa amaliyotiga kiritish samaradorlik va samaradorlikni oshirishi mumkin. O'qituvchilar hamkasblar, ota-onalar va talabalar bilan aloqada bo'lish uchun elektron pochta, onlayn forumlar va xabar almashish ilovalari kabi aloqa platformalaridan foydalanishlari mumkin. Texnologiyani integratsiyalash nafaqat tez va qulay muloqotni osonlashtiradi, balki o'qituvchilarni raqamli aloqa kanallarida samarali harakat qilishga tayyorlaydi.

Madaniy kompetentsiya treningi. Bugungi sinflarda mavjud bo'lgan xilma-xillikni hisobga olgan holda, o'qituvchilar madaniy kompetentsiyaga ega bo'lishi kerak. Madaniy kompetentsiyalarni o'qitish o'qituvchilarga madaniy farqlarni tushunish va boshqarishga yordam beradi, turli nuqtai nazarlarni qamrab oluvchi va hurmat qiladigan muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Ushbu trening tizimli amalga oshirilishini ta'minlash uchun malaka oshirish dasturlariga kiritilishi mumkin.

Kimlar bilandir muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ba'zi hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Katta yoshdagi kishilar rasmiy va norasmiy munosabatlarga kirishadilar. Rasmiy munosabatlar ish, xizmat yuzasidan bo'ladi. Norasmiy muloqot esa ishdan boshqa paytlarda, o'yda (oila), mahallada, ko'cha - ko'ylarda bo'ladi. Atrofdagilarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr - muhabbat tuyg'usini o'yg'otish muloqotda sherik tanlashga imkon tug'diradi. Jismoniy va ma'naviy jihatdan erkinlikka erishish o'ziga ishonch tuyg'usini yuzaga keltirsa, mustaqillik muloqotda teng huquqli sherik bo'lishga shart-sharoit yaratadi. Birinchi toifadagi muloqot (faoliyatdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun axborot ayirboshlash, kommunikatsiya o'rnatish) bilan bir qatorda ikkinchi toifadagi muloqotning (o'zligingni boshqa kishilarda davom ettirish) mavjudligi har bir kishining ikkinchisiga ko'rsatadigan ta'siriga e'tiborni jalb qiladi. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir o'quvchining jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, orttirgan obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va histuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi. "Muloqot-odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir." Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning muhim jihatlaridan biri, munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati-nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imoishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Kishining yuksak ma'naviy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Agar kishining muloqotga bo'lgan ehtiyoji qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi o'quvchiarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta'sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsni temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. O'qituvchi o'quvchiga bilimlarni ma'lum

qiladi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida undan ma'lum qilingan bilimlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi. O'zaro birgalikdagi harakat mohiyatlar darajasida amalga oshiriladi. O'quvchilar muloqotining shakllanishida maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim. O'quvchilarda muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi.

- Muomala madaniyatining nazariy asoslarini;
- Shaxslararo munosabatlar qonuniyatlarini;
- Pedagogik muloqotning qonuniyatlarini;
- Guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;
- Guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish;
- Muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil teish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish; Shuning uchun muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib, hamqorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib. shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g'oyalarini anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi o'quvchining ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, karakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlarini, sifatlarini namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin.

Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. "Oltin so'zlar" (azizim, aylanay, o'rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi) dan kundalik hayotimizda ko'proq foydalanishimiz zarur. Kattalar muloqotiga yoshlar taqlid qilishlari orqali ularda muomala san'ati, madaniyati shakllanib boradi. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta'sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsni temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalarning hosil bo'lishida muloqotning o'rni beqiyos. Oddiy ko'nikma ("to'g'ri o'tir, qo'lingni yuv, joyingga bor, salom ber") larni ham muloqot orqali singdiriladi. Biz oldimizga har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalashni qo'rganmiz. Prezidentimiz doimo yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalashni uqtiradilar. Demak, muloqot fikrlash bilan o'zviy bog'liq holda shakllanadi.

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'rtasida mustahkam muloqot madaniyatini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, maqsadli harakatni talab etadi. Modellashtirish, kasbiy rivojlanish, hamkorlik, fikr-mulohazalar, texnologiya integratsiyasi va madaniy kompetentsiyaga e'tibor qaratish orqali o'qituvchilar ijobiy va samarali muloqot muhitini yaratishga hissa qo'shishlari mumkin. Oxir oqibat, mustahkam muloqot madaniyati nafaqat o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini yaxshilaydi, balki maktab jamoasidagi umumiy ta'lim tajribasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.V.M.Karimova Ijtimoiy psixologiya Toshkent 2017 y.
- 2.E.G'oziyev "Muomala psixologiyasi" o'quv qo'llanma.
- 3.M.G.Davletshin ham "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanma.
- 4.V.M.Karimova Ijtimoiy psixologiya darsli
- 3.Kamolova, SH. O., & Munarova, R. O'. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. Issledovatel nauchniy jurnal.–Qozog'iston, 5(49), 100-105.
- 4.Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6).
- 5.Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 3(1).
- 6.Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualniye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).